Qabul qilindi: 19-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 24-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 27-sentabr 2026-yil

TADBIRKORLIK NIZOLARINI MEDIATSIYA ORQALI HAL ETISHNING FUQAROLIK-HUQUQIY JIHATLARI

Murdaliyeva Moxichexra Furqatjon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistri
murodaliyevamohichehra@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq nizolarni mediatsiya orqali hal etishning fuqarolik-huquqiy jihatlari tadqiq etiladi. Tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida yuzaga keladigan shartnomaviy, mulkiy va boshqa fuqarolik-huquqiy nizolarni muqobil usulda hal etishning huquqiy imkoniyatlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni, fuqarolik va iqtisodiy protsessual qonunchilik hamda mediatsiya sohasidagi ilmiy qarashlar asosida mediatsiyaning asosiy prinsiplari, tadbirkorlik nizolariga nisbatan qo‘llanishi va mediativ kelishuvning huquqiy tabiati yoritiladi. Shuningdek, mediativ kelishuvni tuzish, bajarish va bajarilmagan taqdirda majburiy ijroga qaratish bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot yakunida tadbirkorlik nizolarini mediatsiya orqali hal etish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: mediatsiya, tadbirkorlik nizosi, fuqarolik huquqi, tadbirkorlik huquqi, mediativ kelishuv, muqobil nizolarni hal etish, shartnomaviy nizo, mediator, majburiy ijro.

Abstract. This thesis examines the civil-law aspects of resolving business disputes through mediation. It analyzes the legal possibilities of resolving contractual, property and other civil-law disputes arising between business entities through alternative dispute resolution mechanisms. Based on the Law of the Republic of Uzbekistan “On Mediation”, civil and economic procedural legislation, as well as scholarly approaches to mediation, the

thesis examines the fundamental principles of mediation, its application to business disputes and the legal nature of mediated settlement agreements. Particular attention is paid to the conclusion and performance of mediated settlement agreements and their compulsory enforcement in cases of non-performance. Based on the analysis, scientific and practical proposals aimed at improving the effectiveness of mediation in resolving business disputes are developed.

Keywords: mediation, business dispute, civil law, business law, mediated settlement agreement, alternative dispute resolution, contractual dispute, mediator, compulsory enforcement.

Аннотация. В тезисе исследуются гражданско-правовые аспекты разрешения предпринимательских споров посредством медиации. Анализируются правовые возможности разрешения договорных, имущественных и иных гражданско-правовых споров, возникающих между субъектами предпринимательской деятельности, с использованием альтернативных способов разрешения споров. На основе Закона Республики Узбекистан «О медиации», гражданского и экономического процессуального законодательства, а также научных подходов к институту медиации рассматриваются основные принципы медиации, особенности ее применения при разрешении предпринимательских споров и правовая природа медиативного соглашения. Особое внимание уделяется вопросам заключения и исполнения медиативного соглашения, а также его принудительного исполнения в случае добровольного неисполнения. По результатам исследования сформулированы научно-практические предложения по повышению эффективности медиации при разрешении предпринимательских споров.

Ключевые слова: медиация, предпринимательский спор, предпринимательское право, гражданское право, медиативное соглашение, альтернативное разрешение споров, договорный спор, медиатор, принудительное исполнение.

Kirish

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi, tadbirkorlik subyektlari sonining ko‘payishi va ular o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning kengayishi natijasida turli xil fuqarolik-huquqiy nizolarning yuzaga kelish ehtimoli ham ortib bormoqda. Tadbirkorlik faoliyati doirasida shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslik, tovar yoki xizmatlar haqini to‘lamaslik, yetkazilgan zararni qoplash, shartnoma shartlarini o‘zgartirish yoki bekor qilish kabi masalalar nizolarning asosiy sabablaridan bo‘lishi mumkin.O‘zbekiston Respublikasida mediatsiyaning huquqiy asoslari 2018-yil 3-iyuldagi O‘RQ-482-son “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun bilan belgilangan. Qonun fuqarolik-huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq nizolarga nisbatan qo‘llaniladi

Asosiy qism

Tadbirkorlik nizolari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan huquqiy nizolar sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning katta qismi fuqarolik-huquqiy munosabatlar, xususan, shartnoma majburiyatlari bilan bog‘liq. Shartnomaviy munosabatlarda taraflardan birining o‘z majburiyatini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi boshqa tarafning huquq va qonuniy manfaatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday nizolarni sud orqali hal etish mumkin bo‘lsa-da, sud jarayoni taraflar o‘rtasidagi keyingi iqtisodiy munosabatlarga ham ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli hamkorlikni saqlab qolish imkonini beruvchi mediatsiya mexanizmi alohida ahamiyatga ega. “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonunda mediatsiyaning asosiy prinsiplari sifatida ixtiyoriylik, maxfiylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi belgilangan. Ixtiyoriylik taraflarning mediatsiyada o‘z xohishiga ko‘ra ishtirok etishini, maxfiylik esa mediatsiya jarayonida ma’lum bo‘lgan axborotni himoya qilishni nazarda tutadi. Tadbirkorlik nizolarida maxfiylik alohida ahamiyatga ega, chunki nizolarda tijorat siri, moliyaviy ma’lumotlar, shartnoma shartlari va boshqa iqtisodiy axborotlar mavjud bo‘lishi mumkin. Mediatsiya taraflarga nizoni oshkora sud jarayonisiz hal qilish imkonini beradi.

Tadbirkorlik faoliyatidagi nizolarning mazmunidan kelib chiqib, mediatsiya predmeti

bo‘lishi mumkin bo‘lgan masalalarni shartnomaviy, mulkiy, qarzdorlik va uzoq muddatli hamkorlik bilan bog‘liq nizolarga ajratish mumkin. Bunday hollarda mediatsiya taraflarga nizoni tugatish bilan birga kelgusidagi hamkorlikni saqlab qolish imkonini beradi. Masalan, yetkazib berish shartnomasi bo‘yicha nizo yuzaga kelganda taraflar yetkazib berish muddatini o‘zgartirish, to‘lovlarni bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish yoki shartnoma shartlarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha kelishishi mumkin.

Mediativ kelishuvning fuqarolik-huquqiy ahamiyati

“Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonunning 29-moddasida mediatsiya natijasida taraflar nizoni yoki uning ayrim qismlarini hal qilish bo‘yicha kelishuvga erishgan taqdirda mediativ kelishuv tuzilishi nazarda tutilgan. Mediativ kelishuvda taraflarning huquq va majburiyatlari, majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari ko‘rsatilishi kerak. Tadbirkorlik nizolarida ushbu talab alohida ahamiyatga ega, chunki kelishuvning noaniq tuzilishi keyinchalik uning bajarilishi bilan bog‘liq yangi nizoni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, qarzdorlik bo‘yicha kelishuvda qarz miqdori, to‘lov muddati, to‘lovlarni amalga oshirish tartibi va zarur hollarda bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlari aniq ko‘rsatilishi lozim.

Mediativ kelishuvni ijro etish

Mediatsiyaning samaradorligini baholashda kelishuvga erishishning o‘zi yetarli emas. Kelishuvning amalda bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega. 2025-yilda O‘RQ-1089-son Qonun bilan mediatsiya sohasidagi qonunchilikka muhim o‘zgartirishlar kiritildi. Mazkur o‘zgarishlar mediativ kelishuvni majburiy ijro etish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Jumladan, Fuqarolik protsessual kodeksiga mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish bilan bog‘liq maxsus protsessual tartiblar kiritildi. Mediativ kelishuv ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda, manfaatdor taraf sudga murojaat qilib, uni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berilishini so‘rashi mumkin. Bu holat mediativ kelishuvning huquqiy ahamiyatini kuchaytiradi va tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘shimcha huquqiy kafolat yaratadi.

Sudgacha va sud jarayonidagi mediatsiya

Mediatsiya nizoni sudga olib chiqishdan oldin ham, sud jarayoni davomida ham qo‘llanishi mumkin. Sudgacha mediatsiya taraflarga sud jarayoni boshlanmasdan turib nizoni kelishuv asosida bartaraf etish imkonini beradi. Sud jarayonidagi mediatsiya esa boshlangan nizoni sud qarori chiqarilishidan oldin kelishuv asosida tugatish imkonini beradi. Tadbirkorlik nizolarida bunday imkoniyat vaqtni tejash, xarajatlarni kamaytirish va mavjud biznes munosabatlarini saqlab qolish nuqtayi nazaridan amaliy ahamiyatga ega.

Xalqaro tajriba: Mediatsiya xalqaro tijorat nizolarini hal etishda ham muhim vosita hisoblanadi. UNCITRAL tomonidan 2018-yilda Xalqaro mediatsiya natijasida tuzilgan kelishuvlar to‘g‘risidagi Singapur konvensiyasi qabul qilingan.Konvensiyaning asosiy maqsadi xalqaro tijorat mediatsiyasi natijasida tuzilgan kelishuvlarni tan olish va ijro etish uchun xalqaro huquqiy mexanizm yaratishdan iborat. Mazkur yondashuv transchegaraviy tadbirkorlik nizolarini mediatsiya orqali hal etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Muammolar va takliflar

Tadbirkorlik nizolarida mediatsiyani keng qo‘llash uchun tadbirkorlik subyektlarining mediatsiya imkoniyatlari to‘g‘risidagi huquqiy xabardorligini oshirish, mediativ kelishuvlarda majburiyatlarning bajarilish muddati va usulini aniq belgilash, mediatorlarning tadbirkorlik va fuqarolik huquqi bo‘yicha professional bilimlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, tadbirkorlik shartnomalariga nizolarni mediatsiya orqali hal etish imkoniyatini nazarda tutuvchi shartlarni kiritish amaliyotini kengaytirish hamda onlayn mediatsiya mexanizmlarini rivojlantirish mumkin. Tadbirkorlik nizolarida mediativ kelishuvlarning namunaviy tuzilmasini ishlab chiqish ham amaliy jihatdan foydali bo‘lishi mumkin. Bunda taraflarning majburiyatlari, bajarish muddati, to‘lov tartibi va kelishuv bajarilmagan taqdirda qo‘llaniladigan huquqiy mexanizmlar aniq ifodalanishi lozim.

Xulosa

Tadbirkorlik nizolarini mediatsiya orqali hal etish fuqarolik-huquqiy nizolarni muqobil

tartibda hal qilishning muhim shakllaridan biridir. O‘zbekiston qonunchiligida mediatsiyaning tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq nizolarga nisbatan qo‘llanishi, uning asosiy prinsiplari va mediativ kelishuvning huquqiy ahamiyati belgilangan. Mediatsiyaning tadbirkorlik nizolaridagi asosiy afzalliklaridan biri taraflarga nizoni o‘zaro manfaatlarni hisobga olgan holda hal etish imkonini berishidir. Mediativ kelishuvning aniq va bajarilishi mumkin bo‘lgan shartlar asosida tuzilishi uning huquqiy samaradorligini oshiradi. 2025-yildagi qonunchilik o‘zgartirishlari bilan mediativ kelishuvni majburiy ijro etish mexanizmlarining takomillashtirilishi ushbu institutning amaliy kafolatlarini kuchaytirdi.Shu bilan birga, tadbirkorlik nizolarida mediatsiyani yanada rivojlantirish uchun tadbirkorlik subyektlarining huquqiy xabardorligini oshirish, mediatorlarning kasbiy malakasini rivojlantirish, mediativ kelishuvlarni tuzish amaliyotini takomillashtirish va xalqaro mediatsiya standartlarini milliy huquq tizimiga izchil joriy etish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi O‘RQ-482-son “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. Масадиков Ш.М. Проблемы правового регулирования медиации. Monografiya. – Toshkent: TDYU, 2014.

3. Tillaboyeva M. Mediatsiya mohiyati // Eurasian Journal of Academic Research. – 2021. – Vol. 1, №7. – B. 35–37.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-1089-son Qonuni.

5. Jo‘rayev A.A. Sudgacha va sud jarayonidagi mediatsiya: qiyosiy tahlil va amaliy jihatlar. – 2025.

6. UNCITRAL. United Nations Convention on International Settlement Agreements Resulting from Mediation (Singapore Convention on Mediation). – New York, 2018.

7. Fisher R., Ury W., Patton B. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In. – Penguin Books.

8. Maripova S. Fuqarolik protsessida mediatsiyani qo‘llash: qiyosiy-huquqiy tahlil. PhD dissertatsiyasi. – 2022.